

SO'Z SAN'ATI. SO'Z SAN'ATINI O'RGANISHNING AHAMIYATI.

Ipak yo'li innovatsiyalar universiteti assistenti

Sadriddinova Zarina Shuhrat qizi

Ipak yo'li innovatsiyalar universiteti 1-bosqich talabasi

Xaitboyeva Yulduz Abdurashid qizi

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada so'z san'atining o'ziga xos xususiyatlari va uni o'rganishning ahamiyati yoritilgan va boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun qo'shimcha tavsiyalar xulosa ko'rinishida bayon etilgan.

KALIT SO'ZLAR: So'z san'ati, obrazlilik, ma'naviy ta'sir, o'qituvchi nutqi, me'yorlar, nutqni takomillashtirish, so'z san'atini egallash.

Dunyoda shunday so'zlar borki ular juda beo'xshov, xunuk, qo'pol va salbiy so'zlardir. Ular bir insonni tili-yu dilidan chiqmay turib ham bir insonni dil ko'zgusini chil-chil holatga keltiradi. Har bir inson so'z kuchi ifodasini anglashi zarur. Sababi birgina yolg'on yoki hazil so'z bilan butun dunyoni yo'q qilish mumkin. So'z – bu qudrati kuch demak. Shuni ta'kidlash joizki, har bir inson birgina o'ziga emas, balki butun dunyoga tinchlik tilash zarur. Bejizga xalqimiz: "El tinch – sen tinch" deb ta'kidlashmagan.

Darhaqiqat, har bir tilak va orzu bir-biriga chambarchas bog'liqdir. Birgina so'z bilan bir xastani sog'lom qilish yoki bir sog'lom insonni tuzalmas xasta qilish mumkin. Dunyoda shunday so'zlar borki ular juda beo'xshov, xunuk, qo'pol va salbiy so'zlardir. Ular bir insonni tili-yu dilidan chiqmay turib ham bir insonni dil ko'zgusini chil-chil holatga keltiradi. Har bir inson so'z kuchi ifodasini anglashi zarur. Sababi birgina yolg'on yoki hazil so'z bilan butun dunyoni yo'q qilish mumkin. So'z – bu qudratli kuch demak. So'zdan san'at darajasida foydalanish uchun ChDPU boshlang'ich ta'lim kafedrasi o'qituvchisi (PhD) O.Jabborovaning so'z san'ati haqidagi quyidagi fikrlarini o'rganishimiz maqsadga muvofiq bo'lar edi:

So'z san'ati – bu so'z vositasida fikrni badiiy ifodalash bo'lib, unda inson va jamiyat hayoti obrazlar vositasida tasvirlanadi. So'z san'ati til va adabiyotning uyg'unlashgan shakli bo'lib, unda badiiyat qonuniyatlariga asoslaniladi. Uning asosiy ob'yekti inson ruhi, ongi, ahloqi va hayoti hisoblanadi. Mazkur san'at vositasida insonning ideal orzulari, baxtga intilish xarakatlari va hayotining mazmuni ifodalananadi. Shu sababli so'z san'atining inson hayotidagi o'rni beqiyos bo'lib, uning vositasida insonning odamiylik madaniyati rivojlantiriladi. Pedagog olimlarning fikrga kelishicha, so'z san'ati inson hayotida umrbod hamrohlik qiladi. Haqiqatan ham inson yoshligidanoq so'z san'atining devochasi bo'lgan alla tinglab voyaga yetadi. Aynan allada musiqiylik, ohang, mazmun va obrazlilik mujassam bo'lgan.

Shu sababli alla so‘z san’atining ilk ko‘rinishi sifatida insonning ruhiyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

So‘z san’atining muhim omillari mavjud. Bunday omillarning asosiyлари quyidagilardan iborat:

- 1) til imkoniyatlaridan foydalanish;
- 2) obrazlilik;
- 3) ma’naviy ta’sir.

Mazkur omillardan asosiysi *tildir*. Unga ko‘ra, har bir xalq o‘z ona tilisining imkoniyatlari vositasida fikrini, orzu-umidlarini va ideal maqsadlarini ifodalaydi. Bu borada misol uchun, ona tilimiz o‘zbek tilining imkoniyatlari kengligini alohida ta’kidlash lozim. Masalan, “yig‘lash” so‘zining 30 dan ortiq turlari mavjud. “ingramoq”, “yig‘lamoq”, “nola qilmoq”, “ko‘z yoshi to‘kmoq” kabilar shular jumlasidandir. So‘zlarning keng ma’noga ega bo‘lishi so‘z vositasida insonga ijobiy ta’sir ko‘rsatishning imkoniyatlari keng hisoblanadi. Bunday imkoniyatlar har bir tilga xos bo‘lib, u tillarda ham ohang, musiqiylik, ruhiy ta’sir omillari kabilar keng bo‘ladi. Shu sababli pedagog olimlar ona tili vositasida insonni tarbiyalash masalasiga alohida e’tibor berishadi. Misol uchun, dunyoda 200dan ortiq til mavjud bo‘lsa, ularning har biri o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi va har bir xalqda allaning mavjudligini ta’kidlash lozim.

So‘z san’atining muhim omillaridan yana biri *obrazlilikdir*. Unga ko‘ra, fikr biror narsaga qiyoslanib ifodalanadi. Misol uchun, Oybekning “O‘zbekiston” she’ridagi quyidagi satrlarga e’tibor bering:

*Bir o‘lkaki tuprog‘ida oltin gullaydi,
Bir o‘lkaki sal ko‘rmasa Quyosh sog‘inar.*

E’tibor berilsa, bu o‘rinda “oltin gullaydi” iborasi bilan Yurtimizning go‘zalligi va maftunkorligi ifodalangan, “sal ko‘rmasa Quyosh sog‘inar” iborasi esa ona Vatanimizning serquyosh o‘lka ekanligi ta’kidlangan. Mana shu satrlar insonning ruhiyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi va kishida Vatan bilan g‘ururlanish hissini uyg‘otadi. Shu sababli so‘z san’atida obrazlilik eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Masalan, onalar Makkaga, otalar qibлага, opalar bahorga, singillar chamanzorga qiyoslanadi. Buning natijasida inson ruhiyatiga o‘ziga xos ko‘tarinkilik, hurmat, ehtirom va izzat-ikrom tuyg‘ulari paydo bo‘ladi.

So‘z

san’atining navbatdagi omillaridan biri *mazmundir*. Unga ko‘ra, til vositasida obrazli shaklda ifodalanayotgan fikr chinakam mazmunga ega bo‘lishi kerak.

Shu jihatdan mazmunsiz fikr insonning ongi va ruhiyatiga ta’sir qilmaydi. Masalan, “shamol esdi” iborasi “shamol g‘ir-g‘ir esdi” deb ifodalansa mazmun kuchayadi. Mazkur o‘rinda ta’kidlash lozimki, mazmun chuqr va haqqoniy bo‘lsa, uning shakli ham nafis bo‘ladi. Ko‘p hollarda nasriy asarlarda ham mazmun va shaklning

uyg'unligiga e'tibor beriladi. Misol uchun, Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar" romanidan olingan quyidagi lavhaga e'tibor bering:

Homid Otabekdan Hasanaliga ishora qilib so'radi:

- *Bu kim?*

Otabek Hasanalining uzoqlashib ketishini kutib turdi-da, sekin dedi:

- *Qulimiz.*

E'tibor berilsa bu o'rinda, quyidagi mazmun berilgan: birinchidan, Homidning salbiy xarakteri ifodalangan, chunki u Hasanalining oldida uning kim ekanligini so'raydi; ikkinchidan, Otabekning odobli va madaniyatli ekanligi ifodalangan, negaki u Hasanalining uzoqlashib ketishini kutib turib javob berdi, agar u Hasanalining oldida qulimiz deb javob bergenida odobsiz hisoblanar edi; uchinchidan, yozuvchi odam qul bo'lsa ham hurmatga sazovor ekanligini ifodalagan. Mana shunday mazmun vositasida so'z san'ati insonni tarbiya qiladi va ideal qahramonlar vositasida ularni yaxshilikka undaydi.

E'tibor berilsa, so'z san'atining til, obrazlilik va mazmunlilik omillari insonni tarbiyalashning muhim asoslari ekanligi ma'lum bo'ladi. Shu sababli milliy va jahon pedagog olimlari so'z san'atining mazkur imkoniyatlari vositasida ta'lim oluvchilarni tarbiyalash masalasiga asosiy e'tiborni qaratishadi.

"Ona tili" so'z san'atining asosi sifatida. Har bir xalqning so'z san'atida Ona tili asosiy negiz hisoblanadi. Chunki ona tilining inson ruhiyati va ongiga ta'siri ilmiy isbotlangan bo'lib, unga ko'ra, inson aynan ona tili vositasida ma'naviy shakllanadi. Uning natijasida ijtimoiy hayot va jamiyatda faollik ko'rsatadi. Bu borada so'z san'ati o'zining asoslariga ega bo'lib, ikki jihatdan muhim imkoniyatlarni beradi: birinchidan, ona tilining keng imkoniyatlarini namoyon qiladi va uning targ'ibotini amalga oshiradi; ikkinchidan, ona tilining lug'at boyligini kuchaytiradi. Shu jihatdan Ona tilining so'z boyligi shevalar va boshqa tillardan o'zlashgan so'zlar vositasida ko'payib boradi, bunda so'z san'ati muhim vazifani bajaradi.

Ona tili so'z san'atining asosi sifatida quyidagi vazifalarni bajaradi:

- 1) so'z boyligini (lug'atni) taqdim qiladi;
- 2) tasvirlash vositalarini beradi;
- 3) fikrni ikkinchi shaxsga yetkazadi.

So'z san'atining ona tili so'z boyliklaridan foydalanishida muhim qonuniyatlar mavjud. Unga ko'ra, tasvirlanayotgan fikr adabiy tilda bo'lishi va barchaga bir xil tushunarli bo'lishi kerak. Shu jihatdan adabiy til ona tilining me'yorlashgan shaklidir. Masalan, "ona" so'zi adabiy til so'z boyligi hisoblanadi, uning shevalarda aya, oyi, ena kabi shakllari mavjud. Ba'zida ijodkorlar fikrning ta'sirchanligini oshirish maqsadida shevalardagi bu kabi shakllardan ham foydalilanadi, biroq ularni ifodalashda adabiy til me'yorlariga amal qiladi. Har bir xalqning ona tilisi keng so'z boyligiga ega va bunday so'zlarning bir necha ma'noda shakllari mavjudligini eslatib

o'tish joiz. So'z san'atida ana shu shakllar imkoniyatlaridan muntazam foydalanib boriladi va natijada asarning mazmun va obrazligi ortadi. Ba'zida shunday hol kuzatiladiki, o'zga xalqlar ona tilisida yozilgan asarlar boshqa xalqlar vakiliga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Buning sababi asarning asl adabiy tilda yozilganligidadir. Shu sababli mamlakatimizda istiqomat qilayotgan 132 dan ortiq millat va elat vakillari bir necha ona tillarda uyg'un foydalanib kelmoqda. Yurtimizda o'zbek tilidan tashqari rus, qozoq, qirg'iz, ukrain, belorus tillarida ham asarlar bitilayotganligini eslatib o'tish joiz. Bu hol mamlakatimiz so'z san'atining muhim boyligi hisoblanadi va insonni tarbiyalashning eng muhim ma'naviy poydevori sifatida qaraladi.

So'z san'atining asoslaridan birni *tasvirlashdir*. Unga ko'ra, mazmunni ifodalashda o'quvchi uchun qulay, oson, tushunarli va hayajonli shakllarga tayanilishi kerak. Bunda Ona tilining keng imkoniyatlaridan foydalaniladi. Shu sababli so'z san'atida qiyoslash, o'xshatish, namuna qilib ko'rsatish kabi tasvir vositalaridan foydalanishga asosiy e'tibor beriladi. Biror narsaga qiyos qilinganida fikr ishonchli chiqishi kerak, masalan, Quyoshni Alisher Navoiy nonvoyning tandiriga qiyoslaydi va bunda Quyoshning issiqligiga etiborni qaratadi. Chunki o'quvchi uchun tandirning issiqligi tanish hodisa. Shuningdek, o'xshatishda ham mantiqli fikrga asoslaniladi, masalan, qabog'i uyulgan kishi bulutli kunga o'xshatiladi, bunda bulutning Quyoshni to'sib qo'yishiga ishora qilinadi va insonning ochiq yuz bo'lishi charog'onlikni, uning tund bilan berishi qorong'ulikni ifodalaydi. So'z san'atida namuna vositasidan ham oqilona foydalaniladi va unda yaxshi-yomon farqlab ko'rsatiladi. Shu sababli ijobiy qahramonlardan inson ibrnat oladi va salbiy qahramonlarga o'xshamasalikka intiladi, bu hol namunaning muhim ko'rinishidir. Diqqat qilinsa, so'z san'atida ona tilining bunday tasvирn vositalaridan oqilona foydalanish bilan insonning ruhiyati va ahloqiga ta'sir ko'rsatadi. Bu borada ayniqsa, she'riy asarlarning imkoniyatlari keng ekanligini ta'kidlash lozim. Shu jihatdan Abdulla Oripovning "O'zbekiston" she'ridan olingan quyidagi parchaga e'tibor bering:

Besh asrkim nazmi saroyni,
Titratadi zanjirband bir sher.
Temur tig'i yetmagan joyni,
Qalam bilan oldi Alisher.

Bu o'rinda shoir she'riyat olamini saroyga, ulug' bobomiz Alisher Navoiyni sherga o'xshatgan va qiyoslagan. Buning natijasida fikr ta'sirli chiqib, o'quvchining ongiga tez o'rashib qoladi.

So'z san'atining muhim vositalaridan biri *fikrni yetkazishdir*. Unga ko'ra, ifodalangan fikr ikkinchi shaxsga nafis shaklda yetkaziladi. Bu borada so'z san'atining muhim shakllaridan biri maqollar juda keng imkoniyatlarni beradi. Maqollarda fikr quyma, obrazli va mazmunli shaklda ifodalananadi, natijada insonning

xotirasida uzoq saqlanadi. Misol uchun, Ish ishtaha ochar-Dangasa ishdan qochar, Sho‘x bola – Yaxshi bola, O‘qib o‘rgangan olim – o‘qimagan o‘ziga zolim va h.k. Mazkur maqollarda fikrlar obrazli, ohangli va oddiy shakllarda ifodalangan, lekin ularda mazmun juda chuqr hisoblanadi. Shu sababli so‘z san’atidagi asosiy vosita fikrni uzg‘atish muhim omillardan biridir.

E’tibor berilsa, so‘z san’atining bunday imkoniyatlari shaxs tarbiyasida muhim ahamiyatga ega va ular ko‘p hollarda ona tiliga asoslanadi. Shu sababli mamlakatimiz ta’lim tizimida boshlang‘ich sinflardan boshlab “Ona tili” o‘quv fani o‘qitiladi.

“O‘qish” so‘z san’atining amaliy omili sifatida. So‘z san’atining muhim qonuniyatlaridan biri o‘qish va uqishdir. Unga ko‘ra, she’r, qissa, roman, hikoya, doston, maqol, matal kabi janrlarda bitilgan badiiy asarlar mustaqil o‘qilishi va ularning mazmuni uqib olinishi lozim. Shu sababli boshlshang‘ich sinflardan boshlab o‘quvchilarning o‘qish ko‘nikmasi va madaniyatini shakllantirishga, ularni kitobxonlikka ko‘niktirishda asosiy e’tibor qaratiladi.

So‘z san’atida o‘qishning o‘ziga xos qonuniyatları mavjud. Bunday qonuniyatlarning asosiyalarini quyidagilar tashkil etadi:

- 1) yosh, jismoniy va ruhiy xususiyatlari mos asarlarni tanlash;
- 2) mutolaa jarayoni uchun vaqt va joy tanlash;
- 3) o‘qishning estetik va gigiyenik talablariga rioya qilish.

So‘z san’atining asosiy qonuniyatlaridan hisoblangan o‘qish madaniyatida insonning yosh, jismoniy va ruhiy xususiyatlariga mos asarlarni tanlash muhim o‘rin tutadi. Unga ko‘ra, o‘qish uchun tanlanayotgan asarning inson imkoniyatlariga mos bo‘lishi kerak. Misol uchun, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun tanlshangan badiiy asarlar qisqa hajmli, til jihatidan ravon, ifoda jihatidan obrazli va mazmun jihatidan quyma xususiyatlarga ega bo‘lishi taqozo etiladi. Aslida mazkurn masala asrlar davomida pedagoglar va katta yoshlilarning diqqat markazida bo‘lib kelmoqda. Masalan, Alisher Navoiy “Lison ut-tayr” (Qush tili) asarida eslab yozadi: “Esimda, 7-8 yoshlarda edim. Menga Farudiddin Attorning “Mantiq ut-tayr” (Qush nutqi) asari yoqib qoldi. Natijada meni o‘rtoqlarimga qo‘shilgim ham kelmay qoldi va hamma narsadan ko‘nglim sovidi. Buni sezib qolgan ota-onam asarni tortib olib, yashirib qo‘yishdi. Lekin men asarni yodlab olgan edim va ichimda takrorlab yurardim”. Chunki bu asarda inson ruhiyatining ichki kechinmalari tasvirlangan bo‘lib, u yosh Alisherga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli ota-onasi uning yoshligini hisobga olib, bu asarni o‘qishini ta’qilaydi. Demak, o‘qish uchun tanlanadigan asar va uni to‘g‘ri tanlash masalasi asrlar davomida pedagogikaning eng muhim vazifalaridan biri bo‘lib kelmoqda. Negaki insonning yosh, jismoniy va ruhiy xususiyatlariga mos ravishda tanlangan asarlar uning so‘z san’ati asoslaridan to‘g‘ri bahramand bo‘lishiga olib keladi. Shu sababli boshlshang‘ich sinf o‘quvchilariga kitob tanlashda yordam

ko'rsatish bugungi kundagi eng muhim pedagogik vazifalardan biri bo'lib, uning vositasida o'quvchilar so'z san'ati olamiga olib kiriladi.

So'z san'atining yana bir muhim qonuniyatlaridan biri o'qishning estetik va gigiyenik talablariga rioya etishdir. Unga ko'ra, nashr mahsulotlari o'quvchiga jismoniy va ruhiy ta'sir o'tkazmaydigan shaklda tayyorlanishi, kitobxonlarning gigiyenik talablarga javob beradigan kitoblarni tanlashi taqozo etiladi. Chunki bunday talablar mutolaa jarayonining sifati, mazmuni va salmog'i bilan bog'liq hodisadir. Shu sababli keyingi paytlarda kitob dizayni tarkib topdi, mazkur yondashuvga ko'ra, kitoblarning estetik va gigiyenik talablar asosida nashr etishidan tortib, kitobxonning mutolaa jarayoniga bo'lgan shartlarni ham o'rganadi. Buning natijasida so'z zavqlanish, matn mazmunidan chuqur ma'nolarni o'qish va o'qish vositasida aqlning rivojlanishi kabi imkoniyatlarga ega bo'linadi. Shu sababli so'z san'atining mutolaa qiluvchilar toifalari asosida targ'ibot qilish tarkib topgan. Masalan, O'zbekiston Respublikasi o'quv adabiyotlariga qo'yiladigan Qoidalarga binoan boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan o'quv adabiyotlari, ilmiy va metodik ishlanmalar estetik va gigiyenik talablarga javob berishi shart. Buning natijasida o'quvchilarning so'z san'ati bilan kutilgan darajada tanishtirishga erishiladi.

E'tibor berilsa, boshlang'ich sinflarda so'z san'ati asoslari bilan o'quvchilarni tanishtirish ART texnologiya va kreativlik muhim asoslaridan hisoblanadi. Mazkur san'atning muhim negizlaridan biri sifatida "Ona tili va o'qish savodxonligi" o'quv fani o'qtiladi. Ushbu o'quv fani o'quvchilarni so'z san'ati olamiga olib kirishning debochasi hisoblanadi.

So'z san'atini o'rganishning ahamiyati. Ta'lim tizimi vositasida so'z san'atini o'rganish muhim yo'naliishlardan biri hisoblanadi. Shu jihatdan boshlang'ich sinflarda "Ona tili va o'qish savodxonligi" o'quv fani vositasida so'z san'atining ilk asoslari bilan tanishiladi.

Boshlang'ich sinflarda so'z san'atini o'rganishning ahamiyati quyidagilar bilan belgilanadi:

- 1) o'quvchilarning his-tuyg'ularini shakllantirish;
- 2) o'quvchilarning estetik ongini tarkib toptirish;
- 3) o'quvchilarning kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish.

Boshlang'ich sinflarda so'z san'ati o'quvchilarning *his-tuyg'ularini* shakllantirish omili hisoblanadi. Chunki aynan hissiyot, tuyg'u va ruhiy kechinmalar o'quvchilarning ahloqi, aqli va ongingin shakllanishi uchun asos hisoblanadi. Mazkur masala hozirgi zamon texnologik rivojlanish jarayonida yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Chunki boshlang'ich sinf o'quvchilari kompyuter, mobil aloqa vositasi kabi texnik imkoniyatlardan keng foydalanmoqda va ulardagi pedagogik ishlov berilmagan ma'lumotlarni to'g'ridan-to'g'ri qabul qilmoqda. Buning natijasida o'quvchilarning his-tuyg'ularida nisbatan qotish yuzaga kela boshlagan. Sharq

pedagog mutafakkirlari insonning his-tuyg‘ulari qotib qolsa, ularning ongida yomonlik va yovuzlik illatlari paydo bo‘ladi deb hisoblaydi. Shu sababli ta’lim va tarbiya jarayonida shaxsning his-tuyg‘ularini rivojlantirishga alohida e’tibor beriladi va bunda so‘z san’ati muhim vazifani bajaradi. Masalan, bolalar adabiyotining she’riyatini kuzatsak, o‘quvchilarning his-tuyg‘ularini rivojlantirishga qaratilgan juda ko‘p g‘oyalar, obrazlar va tavsiyalar o‘z ifodasini topgan. Misol uchun, Oybekning “Qutlug‘ qon” asarida keltirilgan bolalarning qo‘shtig‘idan olingan quyidagi parchaga e’tibor bering:

*Oymomojon pilla,
Qanotlari tilla.*

Oymomoning pillaga o‘xshatilishi to‘g‘ri, ayni paytda uning qanotlari yo‘qligi ma’lum. Shu o‘rinda o‘quvchi mazkur masalaning yechimini topishga xarakat qiladi va o‘qituvchi yordamida Oyning “taralayotgan nurlari” uning qanogtlari ekanligini anglaydi va 15 kunlik to‘lin oyning nurlari tilla-zar rangida bo‘ladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bunday o‘xshatishlardan zavqlanadi, chunki ularning his-tuyg‘ulari beg‘uborligi bilan ajralib turadi. Shu jihatdan Quyoni bobo, Yerni ona, Tabiatni makon kabi sifatlash boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining his-tuyg‘ularini rivojlantiruvchi omillar hisoblanadi. E’tibor berilsa, so‘z san’atining bunday imkoniyatlari hali rivojlanishda bo‘lgan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining beg‘ubor his-tuyg‘ularini o‘ziga xos o‘xshatishlar va mazmunlar vositasida boyitib boradi.

So‘z san’atini o‘rganishdagi yana bir amaliy jihat bu o‘quvchilarning *estetik ongini* shakllantirishdir. Unga ko‘ra, o‘quvchilarda go‘zallikni his qilish va uni sevish, inson va tabiatning go‘zal ekanligini anglash, nafosat insoniylikning muhim omillaridan biri ekanligi to‘g‘risidagi ko‘nikmalarni shakllantirish tushuniladi. Shu sababli boshlang‘ich sinf o‘quvchilari butun olamga nisbatan zavq va shavq bilan munosabatda bo‘ladi, ular uchun xunuk narsaning o‘zi yo‘q. E’tibor berilsa, o‘quvchilar uchun uy hayvonlarining barchasi do‘st hisoblanadi. Bunday munosabat o‘quvchilarda estetik ongning shakllana boshlaganidan dalolat beradi. Yoki kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilar toifasi orasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari gullarni eng yaxshi ko‘rvuchi shaxslar hisoblanadi. Shu sababli pedagoglar aynan mana shu ko‘nikmani shakllantirish bilan o‘quvchilarda estetik ongini shakllantirish mumkin, degan hulosaga kelishgan. Shuningdek, estetik ongi shakllangan o‘quvchida ruhiy ko‘tarinkilik, intiluvchanlik, qiziquvchanlik ko‘nikmalari paydo bo‘ladi va aksincha, estetik ongi shakllanish jarayonida bo‘lgan o‘quvchilarda ikkilanish, o‘ziga ishonmaslik, lanjlik kabi xususiyatlar uchraydi. Bularning barchasi so‘z san’ati vositasida o‘quvchilarning estetik ongini shakllantirish zaruriyatini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, so‘z san’atini o‘rganishning ahamiyatlaridan biri o‘quvchilarning *kitobxonlik madaniyatini* shakllantirish bilan belgilanadi. Unga

ko‘ra, o‘quvchilarning kitobxonlik madaniyati ular ma’naviy olamining shakllanish asosi hisoblanadi. Keyingi paytlarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida “Kitobim-oftobim”, “Kitobim-qadrdoñ do‘stim”, “Kitobim-hamkorim” kabi g‘oyalarning tarkib topganligi muhim hisoblanadi. Ayni paytda, keyingi paytlarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘rtasida o‘ziga xos kitobxonlik paydo bo‘lganligini eslatib o‘tish joiz. Bu borada o‘qituvchilar, mutaxassislar, ota-onalar va katta yoshlilarning o‘quvchilarga kitob tanlash masalasida amaliy yordam berishiga ehtiyoj yuqori ekanligini eslatib o‘tish joiz. Shuni ta’kidlash lozimki, xalqimiz genofondida kitobga bo‘lgan muhabbat azaliy hisoblanadi. Ilgari mutafakkirlarimiz minglab kitoblarni mutolaa qilishgan va buning natijasida ularning fikr doirasi kengaygan. Shu jihatdan kitobxonlik madaniyati boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining fikrlash ko‘nikmasini shakllantirish, ularning o‘z fikrlarini mustaqil ifodalashi va o‘qigan kitoblarining mazmunini tushunishi bilan bog‘liq hodisa hisoblanadi. Bularning barchasi so‘z sanatini o‘rganishning kitobxonlik madaniyatidagi ahamiyatini belgilaydi.

Shunday qilib so‘z san’ati asoslari ART texnologiya va kreativlikning eng muhim omillaridan biridir. Mazkur masalani idrok etish va uni boshlang‘ich sinflarda amaliyotga joriy etish asoslarini egallash zaruriyat hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jabborova O. ART texnologiya va kreativlik. Darslik. – Chirchiq, 2022
2. Mahmudov H . O‘qituvchi nutq madaniyati. Alisher Navoiy nomidagi O’zbekiston Milliy kutubxonasi . –T. 2007
3. Bobojonov F. Shaxs imiji . - Toshkent: Yangi asr avlodi . 2017
4. Rasulov R., Mo’ydinov Q. Nutq madaniyati va notiqlik san’ati . Toshkent 2011
5. Kaykovus Unsirulmaoliy. Qobusnama-T: <Istiqlol>, 1994
6. Mirxalilova N.A. Use of the "Working with objects" methodology in preparing for international studies // American Journal of Research in Humanities and Social Sciences // ISSN (E): 2832-8019 Volume 13, | June, 2023. Pp: 152-154. www.americanjournal.org.
7. Mirxalilova N.A. TIMSS xalqaro tadqiqoti va uning ahamiyati // Муғаллим ҳәм үзликсиз билимләндирүй. Илмий-методикалық журнал. 2022/5. 36-39bet.
8. Mirxalilova N.A. Funksional savodxonlik tushunchasi // **O‘zbekiston Milliy universiteti xabarları, 2023, [1/2] ISSN 2181-7324. Falsafa** <https://science.nuu.uz/.Social sciences. 216-218 b>
9. Mirxalilova N.A. O‘qish, matematik va kreativ savodxonlik funksional savodxonlikning asosi // Yosh olimlar Axborotnomasi. Maxsus son (4)2023 104-109 b.
10. Mirxalilova N.A. Use of the "working with objects" methodology in preparing for TIMSS international studies // «Өуезов оқулары-21: жаңа қазақстан-еліміздің болашағы» М. Өуезов атындағы оңтүстік Қазақстан университетінің 80

жылдығына арналған халықаралық ғылыми–тәжірибелік конференция енбектері. ТОМ 2-1 Шымкент 2023 UDC 37 292-293 б.

- 11.6. Mirxalilova N.A. O'qish savodxonligini oshirishda PIRLS xalqaro tadqiqotining o'rni // Maktabgacha va boshlang'ich ta'limning dolzarb masalalari: muammo, echimlar va rivojlanish istiqbollari xalqaro ilmiy-amaliy anjumanı materiallari 18-noyabr 2022-yil. 175-178 b.
12. Mirxalilova N.A. Funksional savodxonlikni shakllantirish vositalari // Boshlang'ich ta'lim tizimiga integrativ yondashuv: nazariya va amaliyat. Respublika ilmiy va ilmiy-nazariy anjuman materiallar to'plami
13. Mirxalilova N.A. Xalqaro TIMSS 2019 tadqiqotida tabiiy fanlar savodxonligi // "Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni rivojlantirishning zamonaviy holati va istiqbollari" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumanı materiallari t o' p l a m i 2022 yil 22-23 dekabr 732-735.
14. Mirxalilova N.A. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida funksional savodxonlik darajalarini oshirish // "Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni rivojlantirishning zamonaviy holati va istiqbollari" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumanı materiallari t o' p l a m i
15. Mirxalilova N.A. "Pedagogik ta'lim klasteri vositasida O'zbekistonda matematika ta'limini samaradorligini oshirish usullari" // TVCHDPI "Pedagogik ta'lim klasteri: muammo va echimlar" xalqaro ilmiy amaliy konferensiya 2021-yil 25-26 iyun 160-165 betlar.
16. Mirxalilova N.A. TIMSS 2023 mathematics assessment scope // Annals of Forest Research <https://www.e-afr.org/> 2022. 5399-5404-b.
17. Mirxalilova N.A. Boshlang'ich ta'limda funksional savodxonlik darajalarini oshirish // [Home / Archives / Vol. 18 No. 2 \(2023\): ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ | Выпуск журнала № 18 | Часть2. http://www.newjournal.org/index.php/01/article/view/4542](http://www.newjournal.org/index.php/01/article/view/4542). 174-177 b.
18. Mirxalilova N.A. Boshlang'ich ta'limda TIMSS tadqiqotlari uchun matnli masalalar // "Ilm-fan taraqqiyoti: muammolar, yechim va istiqbollar" mavzusidagi xalqaro qo'shma ilmiy-amaliy konferensiyasi <https://zenodo.org/records/10444474> 2023-yil 19-21-dekabr.
19. Mirxalilova N.A., D.M.Maxmudova. "Uzluksiz ta'limda kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida" // "Uzluksiz ta'lim" jurnali 2021 yil 5-son 9-12 betlar.
20. Mirxalilova N.A., D.M.Maxmudova. Funksional savodxonlik tushunchasi va uni shakllantirish usullari // Муғаллим ҳәм үзликсиз билимләндирүй. Илмий-методикалық журнал. 2023-yil. 2/3- san. 340-346-bet.
21. Mirxalilova N.A., D.M.Maxmudova. "PISA xalqaro dasturida matematik savodxonlik" // TVCHDPI "Pedagogik ta'lim klasteri: muammo va echimlar" xalqaro ilmiy amaliy konferensiya 2021-yil 25-26 iyun 1476-1480 betlar.

22. Mirxalilova N.A., P.T. Abduqodirova. "Matematik savodxonlik kompetensiyalarini rivojlantirish shakllari va metodlari" // O'zbekiston Respublikasi yosh olimlar kengashi."Fan va ta'limni rivojlantirishda yoshlarning o'rni" mavzusidagi respublika ilmiy va ilmiy-nazariy anjuman. 2021-yil 30-sentabr 100-101 betlar.
23. Mirxalilova N.A., D.M. Maxmudova, P.T. Abduqodirova. Talabalarda matematik savodxonlik kompetensiyalarini rivojlantirish omillari" 476-480 betlar.
24. Mirxalilova N.A., Davlatova M.A. TIMSS xalqaro baholash dasturida miqdor tushunchasi va uning turlari // Academic Research in Educational Sciences Volume 3 | Issue 9 | 2022 ISSN: 2181-1385 Cite-Factor: 0,89 | SIS: 1,12 | SJIF: 5,7 | UIF: 6,1.
25. Mirxalilova N.A., D.M. Maxmudova. Funksional savodxonlikni shakllantirish usullari // "Uzluksiz ta'limda raqamli texnologiyalarni joriy etishning zamonaviy tendensiyalari va istiqbollari" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjuman. 2022/12/20.
26. Mirxalilova N.A., D.M. Maxmudova. To'rtinchi sinfda tabiiy fanlar savodxonligi bo'yicha TIMSS 2023 tadqiqotida baholanadigan mavzular // "Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni rivojlantirishning zamonaviy holati va istiqbollari" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumanini materiallari t o' p l a m i. 559-562 b. 2022/12/22.
27. Mirxalilova N.A., S. S. Akbarova . Xalqaro TIMSS 2019 tadqiqotida tabiiy fanlar savodxonligi // [Home /Archives / Vol. 18 No. 2 \(2023\): ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ | Выпуск журнала № 18 | Часть-2 . http://www.newjournal.org/index.php/01/article/view/4541](http://www.newjournal.org/index.php/01/article/view/4541)